

**MUSTAQILLIK YILLARIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIDA
AMALGA OSHIRILAYOTGA ISLOHOTLAR**

Andijon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Nigora Mahmudjonovna Atabayeva

Andijon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Sodiqova Muhabbat Salimovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Oligofrenopedagogika yo'nalishi 101-guruh talabasi

Turgunova Shoxsanamhon Mahmudjon qizi

Oligofrenopedagogika yo'nalishi 101-guruh talabasi

Xursandjonova Moxinur Ilyosjon qizi

Anatatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganidan so'ng to hozirgacha bo'lган davlat boshqaruv tizimida amalga oshirilgan islohotlat haqida ma'lumot berilgan.

Abstract: This article provides information about the reforms implemented in the state management system of the Republic of Uzbekistan after the independence until now.

Аннотация: В данной статье представлена информация о реформах, реализованных в системе государственного управления Республики Узбекистан после обретения независимости до настоящего времени.

Kalit so'zlar : Inson, jamiyat, davlat, demokratiya, fuqarolik jamiyati, demokratik institutlar, jamoat birlashmasi, siyosiy partiyalar, fuqarolar yig'ini, kasaba uyushmasi, ijtimoiy nazorat, ijtimoiy sheriklik, milliy qadriyat, fuqarolik madaniyati, faoliyat, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mas'uliyat, javobgarlik.

Key words: Man, society, state, democracy, civil society, democratic institutions, public association, political parties, citizens' assembly, trade union, social control, social partnership, national value, civil culture, activism, citizen's opinion self-governing bodies, responsibility, accountability

Ключевые слова: Человек, общество, государство, демократия, гражданское общество, демократические институты, общественное объединение, политические партии, собрание граждан, профсоюз, социальный контроль, социальное партнерство, национальная ценность, гражданская культура, активизм, мнение граждан, органы самоуправления, , ответственность, подотчетность

Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linishi printsipli. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab huquqiy davlatchilik

asoslarini yaratish muhim vazifalardan biriga aylandi. O’zbekiston rahbariyati tarixiy an’analarga, dunyo tajribalariga, o’lkaning milliy-tarixiy rivojlanishiga hamda uning o’ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni tubdan isloh qilish yo’llarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda ikkita vazifa: 1) eski ma’muriy buyruqbozlik tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish; 2) yangi davlatchilikning huquqiy-siyosiy asoslarini yaratish, yangi markaziy va mahalliy boshqaruv organlarini shakllantirish masalalari hal qilindi. O’zbekistonda hokimiyat bo’linishi tamoyillariga amal qilinib, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati joriy etilib, Konstitutsiyada mustahkamlandi. Bu organlar faoliyati erkin, bir-biridan mustaqil bo’lib, ayni vaqtida bir-biri bilan chambarchas bog’liqdir. 1994 yil 24 dekabrda ko’p partiyaviylik asosida saylangan Respublika Oliy Majlisi qonun chiqaruvchi hokimiyat vazifasini bajarib keldi. Oliy Majlisga saylovlar yangi bosqichga o’tganligidan 2004 yil dekabridagi saylovlar dalolat beradi. Oliy Majlis endilikda ikki palatadan – Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat boldi. O’tgan davr mobaynida Oliy Majlisda ko’plab yangi qonunlar qabul qilindi, oldingi qonunlarga o’zgartirishlar kiritildi. Davlatni boshqarishning prezidentlik shakli mamlakat boshqaruv tizimini isloh qilishning boshlanishi bo’ldi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat hokimiyatining boshlig’i bo’lib, bir vaqtning o’zida Vazirlar Mahkamasining Raisi vazifasini ham bajaradi. Prezident fuqarolar erkinligi va huquqlarini himoya qilish, Konstitutsiya va O’zbekiston qonunlariga rioya qilinishini kafolatlaydi. Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyat organi bolib, u ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy jabhalardagi vazifalarning bajarilishini, qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, mamlakat Prezidenti farmonlari va qarorlarining ijro etilishini ta’minlaydi. 2007 yil dekabrida bo’lib o’tgan saylovda 4 ta nomzoddan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti demokratik tamoyillarga asoslangan holda saylandi. Respublikada hokimlar boshqaruvining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo’ldi, hokimlikka tajribali va malakali shaxslar Prezident tomonidan tayinlanadi va xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo’lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko’zlab o’z vazifalarini hal etadi. Mahalliy o’z-o’zini boshqarish organlarining asosini mahallalar tashkil etadi. Aholini huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy qo’llab-quvvatlash, ijtimoiy jamg’armalar tashkil etish, turli xayriya tadbirlari o’tkazishda mahallaning o’rni kattadir. Fuqarolik jamiyat bu insonning rivojlanishiga imkon yaratadigan, uning huquq va erkinliklarini tola darajada ta’minlaydigan, qonun ustuvor bolgan ijtimoiy jamiyatdir. Bunday jamiyat qurish davlat qonunlari va inson huquqlarini poymol etmaslikni, insondan qonunlarga qat’iyan rioya qilishni talab etadi. Har bir fuqaroni davlat boshqaruviga keng jalb etilishi, inson huquqlarini himoya qilishda faol qatnashishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratilishi zarur. O’zbekiston Respublikasi sud hokimiyati tizimiga besh yil muddatga saylanadigan Konstitutsiyaviy Sud, Oliy sud, Oliy xojalik sudi, harbiy sudlar

tizimi, Qoraqalpogiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpogiston Respublikasi xojalik sudi, viloyat, tuman va shahar sudlari kiradi. Sud hokimiyatining faoliyati to’g’risidagi qonun qoidalar O’zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Sudlar to’g’risida»gi qonunda bayon etilgan. Respublika rahbariyati sud hokimiyati doirasida islohotlar o’tkazib, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, ularning erkinligi va majburiyatlarini kafolatlovchi huquqiy mexanizmni shakllantirdilar.

Ekspertlar mamlakatimizda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish jarayonida ikkita asosiy vazifa uddalanganini qayd etishadi. Avvalo, iqtisodiyotda ma’muriy-buyruqbozlik va taqsimot tizimidan bozor munosabatlariiga o’tilgan bo’lsa, ikkinchidan, davlat organlarining yangi sharoitlarda samarali faoliyat yuritishiga erishildi. Ma’muriy islohotlar davlat boshqaruvi tizimi organlari tuzilmasini unifikatsiyalashtirdi. Davlat xizmati ushbu tizimning asosiy unsuriga aylandi. Tahlillar shuni ko’rsatayaptiki, davlat xizmati faoliyatini tartibga soladigan hujjatlar bugungi kunning talab va vazifalariga javob bermayapti, sohadagi barcha masalani qamrab olmasdan, yagona huquqiy standartlar hamda ma’muriy-boshqaruv amaliyotini o’rnatishga xalaqit qilmoqda. Xususan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi, yagona kadrlar siyosatining yo’qligi, davlat xizmatchilarining ijtimoiy va huquqiy himoyasi ular tomonidan bajarilayotgan vazifalarga mos emasligi davlat xizmatchilarining ish faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatayapti. Bularning barchasi, o’z navbatida, tashkilotlar, fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlari o’rtasidagi munosabatlarning byurokratlashuviga, davlat tuzilmalari faoliyati yopiqligiga shart-sharoit yaratmoqda. Bundan tashqari, huquqiy asoslar “Elektron hukumat” tizimining jadal ravnaqidan, davlat xizmatlari va ma’muriy tartib-taomillarining taraqqiyotidan ortda qolmoqda. Amaldagi qonun hujjatlarida davlat hokimiyati organlari xodimlarini belgilashda bir qator tushunchalar qo’llaniladi. Biroq ko’lamiga ko’ra, biri--biridan tubdan farq qiladi. Hukumatning 1997 yil 3 iyuldagи qarorida ko’rsatilgan Davlat xizmatchilarining lavozimlari ro’yxatiga vazirlik va idoralar, hokimliklar, o’zini o’zi boshqarish organlari hamda prokuratura idoralari xodimlarining qator lavozimlari kiritilgan. Vaholonki, Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 martdagи qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarida davlat xizmatchisi deganda, faqatgina hokimliklar, vazirlik va idoralar xodimlari tushuniladi. Qonunchilikda ayni paytda “ma’muriy-boshqaruv xodimlari” degan tushuncha ham qo’llanilmoqda. U yuqorida qayd etilgan ro’yxatga kiritilmagan qator tashkilotlarni ham o’z ichiga oladi. Nomenklaturada xo’jalik boshqaruvi organlari lavozimlari borligi uning asosiy farqi hisoblanadi. Shu bilan birga, qonunchiligimizda saylanadigan mansabdar shaxslar faoliyati tartibga solingan. Masalan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va -Senati a’zolari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining maqomi hamda vakolatlari belgilab qo’ylgan. Bir qator hujjatlar, jumladan,

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi, “Prokuratura to‘g‘risida”gi, “Sudlar to‘g‘risida”gi, “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi, “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi qonunlar ayrim davlat organlarining maqomini belgilab beradi. Ko‘plab idoralar o‘z maqomi, maqsad va vazifalari belgilangan tegishli nizomlar asosida ish olib bormoqda. Ko‘rinib turibdiki, davr davlat xizmatlari sifatini oshirish, davlat xizmatchilari faoliyatining ochiqligi va qonuniyligini ta‘minlash bo‘yicha vazifalarni hal qilishni kun tartibiga olib chiqmoqda. Bu vazifalar davlat xizmatchisi huquq va vakolatlarini aniq belgilab berishni taqozo etayapti. Shu bois Prezidentimiz -Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasida davlat xizmati institutini isloh etish, davlat xizmatchilarining moddiy va ijtimoiy ta‘minoti, ularning kasbiy tayyorgarligini tubdan takomillashtirish, bu sohaga yangicha fikrlaydigan, mas’uliyatli, tashabbuskor, vatanparvar kadrlarni jalb etish bo‘yicha samarali tizim yaratish zarurligini ta‘kidlagan edi.

Davlatimiz rahbari yaqin kunlarda “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish vazifasini qo‘ydi. Bu vazifa 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturida alohida bandda ko‘rsatib o‘tilgan.

Hozirgi kunda yuqori turuvchi lavozimlarga tayinlash va ko‘rsatish, kadrlar zaxirasini shakllantirish, xizmatchilarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimi borasida yagona yondashuv yo‘q, mazkur jarayon jamoatchilik bexabar bo‘lgan ichki hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ayni paytda ba’zi idoralarda, misol uchun, Davlat soliq qo‘mitasida ishga qabul qilish tartibi aniq bo‘lib, ularda bu taomil tanlov asosida amalga oshirilishi belgilangan. Bunday yondashuv xolisona qaror qabul qilish, malakali xodimni tanlab olish, kadrlar zaxirasi uchun ma'lumotlar bazasini yaratish imkonini beribgina qolmasdan, fuqarolarning ishga joylashishda teng huquqliliginini ta‘minlashga xizmat qiladi. Fikrimizcha, bunday yondashuv davlat xizmatiga qabul qilish bo‘yicha yagona standartning asosiy unsurlaridan biri bo‘lishi va qonuniy asosga ega bo‘lmog‘i lozim. Bugun vazirlik va idoralarga taqsimlashda nomzodlarni tayinlash va vakolatli organlar bilan kelishish jarayonini yanada bat afsil tartibga solish, uning ochiqligini ta‘minlash zarurati tug‘ilmoqda. Shuni qayd etish kerakki, xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazish ularni baholashning asosiy vositasi hisoblanadi. Bu taomil kasbiy va boshqaruv ko‘nikmalarini takomillashtirishdagi muammolarni hamda mansab pillapoyasidan yuqori lavozimlarga ko‘tarilishi uchun salohiyatini aniqlash imkonini beradi. Amaliyot malakani baholash tizimiga aniq ko‘rsatkichlarni joriy qilish zaruratini ko‘rsatayapti. Bular davlat xizmatlarini ko‘rsatish hamda amaliy natijalarga erishish bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim. Bunda aholi so‘rovlari asosida natijalarni baholash kerak. Binobarin, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev

ta'kidlaganidek, bundan keyin joylardagi rahbarlar faoliyatiga, bиринчи navbatda, ular boshqarayotgan hududdagi aholidan tushayotgan murojaatlar soni, ularning xalq ichida yurishi, mavjud muammolarning amaliy yechimiga qarab baho beriladi. Qisqacha aytganda, rahbarlarga xalqning o‘zi baho beradi. Amaldagi davlat xizmati tizimida rotatsiya mexanizmi, ya’ni mansabdar shaxsning davlat organlari gorizontal yo‘nalishida ishga ko‘chirilishi yetarli darajada tartibga solinmagan. Bundan tashqari, davlat organlari xodimlari uchun Yagona tarif setkasi bo‘lishiga qaramasdan, juda ko‘plab idoraviy farqlar va istisnolar mavjud. Bu esa, oxir-oqibat, mansabdar shaxslarning oylik maoshi hajmiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bunda ham yagona yondashuv va standartlar asosida ish olib borish maqsadga muvofiq.

Bugun yangicha hamda mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatl, tashabbuskor, ilg‘or boshqaruv usullarini puxta o‘zlashtirgan, halol, o‘z Vatani va xalqiga sodiq kadrlarni tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratmasdan sifat o‘zgarishlariga erishib bo‘lmasligi aniq. Shu sababli davlat xizmatini modernizatsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2017-yilning 3-yanvar kuni “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Unda davlat organlarining mansabdar shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish, davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomini belgilash, xizmatni o‘tashning shaffof tartibini o‘rnatish, shaxsiy va kasbiy sifatlar, ochiqlik, beg‘arazlik,adolatlilik va xolislik prinsiplari asosida tanlov bo‘yicha saralash hamda xizmatda ko‘tarilish tizimini joriy etish, davlat organlarining mansabdar shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta’minot olishini va rag‘batlantirilishini ta’minalash davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar sifatida belgilab berilgan. 2017-yilning 9 yanvarida esa Prezidentimizning “Davlat boshqaruvi hududiy organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va xodimlarini moddiy rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni faoliyatini yanada takomillashtirish, samaradorligini oshirish va tuzilmasini maqbullashtirish, shuningdek, uning tarkibiy tuzilmalari vazifalari hamda funksiyalaridagi takrorlanishlarni bartaraf etish, ularni ajratish va aniqlashtirish maqsadida 2017-yil 1 mart kuni davlatimiz rahbari “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonga imzo chekdi. 7-mart kuni esa hukumatning “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahri, shaharlar va tumanlar hokimliklari xodimlarining lavozim maoshlariga uzoq muddat ishlaganligi uchun har oylik ustama to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori qabul qilindi. 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish yo‘nalishida 17 ta qonunni

ishlab chiqish va qabul qilish ko‘zda tutilgan. Birgina joriy yilning o‘zida Davlat dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlar konsepsiysi hamda ushbu islohotlarni o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar -dasturi, “Davlat boshqaruvi asoslari to‘g‘risida”gi, “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi, “Davlat va xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunlar loyihalari ishlab chiqilishi belgilangan. Bularning barchasi davlat xizmatchilari ish faoliyati samaradorligini oshirish, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan tamoyilni amalda qaror toptirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston.. 2017.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. Karimov I.A «O‘zbekiston - o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li». – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
5. Karimov.I.A. «O‘zbekiston - bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» T.19. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
6. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullaev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: SHarq, 2006.
7. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
8. Azizxo‘jaev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. - Toshkent: 2001.
9. Islomov Z.M. O‘zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
10. O‘zbekiston mustaqillik yillarda. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. O‘zbekiston tarixi.
11. R.H.Murtazaevaning umumiyl tahriri ostida. – Toshkent, 2005.
12. O‘zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlari: tarix va hozirgi holat. - Toshkent: TIU, 2011.